UO‘K 94.575.172+18.19

FOZILBEK OTABEK O‘G‘LINING “MUKAMMAL TARIXI FARG‘ONA” ASARIDA QO‘QON XONLIGIDAGI IJTIMOIY HAYOT

D.Z. Abdullayeva

Maqolada Fozilbek Otabek o‘g‘lining “Mukammal tarixi Farg‘ona” asarida tasvirlangan Qo‘qon xonligidagi ijtimoiy holat, muallifning tarixnavis sifatidagi yondashuvi, asarning shu mavzudagi boshqa asarlardan farqli jihatlari tadqiq etilgan. Asar “Oltin beshik” voqeasidan to XIX asr ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrdagi Qo‘qon xonlari tarixi, ularning shajarasi, taxt almashinuv vaqtida qizg‘in kechgan voqealarga doir ayrim yangi ma’lumotlarni o‘zida aks ettirishi bilan ahamiyatga egadir.

Kalit so‘zlar: *Fozilbek Otabek o‘g‘li, “Mukammal tarixi Farg‘ona” asari, Qo‘qon xonlari, Qo‘qon xonlari shajarasi, “Oltin beshik” haqidagi voqea, amir Olimxon, amir Umarxon, Xudoyorxon*.

В статье исследованы социальное состояние в Кокандском ханстве, отражённое в произведении Фазилбека Отабек оглы «Мукаммал тарихи Фарғона», подход автора как историка, а также отличительные особенности данного труда по сравнению с другими работами на эту тему. Установлено, что произведение отражает историю кокандских ханов, их генеалогию и события, связанные со сменой власти от эпизода «Олтин бешик» до второй половины XIX века, включая ряд новых сведений.

Ключевые слова: *Фазилбек Отабек оглы, «Мукаммал тарихи Фарғона», Кокандское ханство, кокандские ханы, генеалогия, «Олтин бешик», Амир Олимхан, Амир Умархан, Худоярхан.*

KIRISH

Fozilbek Otabek qozi o‘g‘li (1879–1938) o‘z davrining juda ko‘p sohalari bilan shug‘ullangan, keng faoliyat kishisi edi. Uning shoir, nosir, tarixnavis, pedagog, tarjimon, xattot, huquqshunos, jurnalist, rassom, fotograf, sozanda, seleksioner olim bo‘lgani ma’lum. Fozilbek Otabek qozi o‘g‘lining “Mukammal tarixi Farg‘ona” asari 2025-yilda ilk marta nashr qilindi [1], unda Qo‘qon xonligi tarixining o‘ziga xos yoritilishi alohida diqqatga sazovor.

MATERIAL VA METODLAR

Fozilbek Otabek qozi o‘g‘li faoliyati haqida A.Z.Validov [2], S.Jalilov [3, 4], S.Ahmedov [5,6], Sh.Vohidov [7], R.Shamsutdinov [8], U.Dolimov [9], Sh.Rizayev [9], B.Karimov [10,11], A.Egamnazarov [12], D.Hojimatov [13], I.Madg‘oziyev [1] tadqiqot va maqolalarida so‘z yuritiladi. “Mukammal tarixi Farg‘ona” asari Farg‘ona harbiy gubernatori A.I.Gippius topshirig‘iga binoan taxminan 1910-yilda yozilgan [14]. Asarning qo‘lyozma nusxasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti asosiy kutubxonasida №09/648 inventar raqami ostida, shu qo‘lyozma asosida kotiba M.Jo‘rayeva tomonidan ko‘chirilgan nusxa Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida №5971 inventar raqami ostida, L.Qosimiy tomonidan ko‘chirilgan yana bir nusxa asar muallifining nabirasi Dilshodbek Hojimatovda saqlanadi [13]. 2021-yilda “Mukammal tarixi Farg‘ona” asari Turkiyaning Karabuk universiteti tadqiqotchisi Dr.Abdullah Yaxshi tomonidan turk tiliga o‘girilib chop etildi [15].

Maqolada tarixiy-genetik, tarixiy-tipologik, tarixiy-sistemali usullar qo‘llanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Fozilbek Otabek o‘g‘li faoliyati davomida Turkiston tarixiga doir ikkita va umumiy tarixga doir bitta asar yaratgan: “Mufassal tavorixi Turkiston”, “Mukammal tarixi Farg‘ona” hamda “Tarixi umm” (“Umumiy tarix”). Birinchi zikr etilgan asar uning otasi tomonidan yozila boshlangan[16. B. 24–25], lekin Fozilbek Otabek o‘g‘li tomonidan oxiriga yetkazilgan. Bu asarni yozishda “Ravzat us-safo”, “Boburnoma” va Rossiya xalqlari tarixiga doir asarlarni o‘qib o‘rganganini ta’kidlaydi: “Va filjumla oromi xosa bo‘lg‘onimizdan so‘ngra “Tavorixi Turkiston”dek mufid kitob notamom qolg‘onig‘a afsus aylab, chunonchi, “Bobirnoma”, “Ravzat us-safo” va Rusiyo tarix kitoblarin topib, nihoyat, sa’yni haddi balug‘ birla e’timomig‘a yetkurdim” [5. B. 184]. “Mufassal tavorixi Turkiston” hajman salmoqli bo‘lib, 382 sahifani tashkil qiladi. “Mukammal tarixi Farg‘ona” asari esa ikki qismdan iborat bo‘lishi reja qilingan. Biroq uning Qo‘qon xonlaridan Xudoyorxon davriga qadar yoritilgan qismi mavjud. “Tarixi umm” (“Umumiy tarix”) asari esa bizgacha yetib kelmagan.

“Mukammal tarixi Farg‘ona” asari muqaddimasida o‘lka tarixini qalamga olish maqsad ekani bayon qilinadi. Yana Farg‘ona viloyatining poytaxti, ya’ni Qo‘qon shahrining qurilishi va obodonlashuvi davridan boshlab o‘tgan xonlarning hayoti, tarjimayi holi, tarixi, zamon o‘zgarishlari va inqiloblari, xonlar tarixi, ularning vafot etishlari, hayotlik vaqtidagi voqealar, hukmronlik qilgan davrlari, g‘alabalari, ular orasidagi o‘zaro jang-u jadallar va nizolarini qisqacha va aniq tarzda qalamga olishga kirishilgani ta’kidlanadi. Muallif Norbo‘taxon zamonidan boshlab to Sayyid Muhammad Xudoyorxon davrigacha yuzaga kelgan turli g‘alayon va isyonlar, fitnalar, zamon voqealari va davr hodisalarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, bilimdon va donishmand odamlar o‘z davrlarida yozib qoldirgan kitoblar va qo‘lyozmalardan tanlab olib, Ho‘qand xonlarining haqiqiy holatini isbotlar bilan tekshirib, aniqlab bayon qilganini bildiradi.

Fozilbek Otabek o‘g‘lining mazkur izohidan uning bo‘lib o‘tgan voqealarga xolis yondashmoqchi bo‘lganini anglash mumkin. Asar katta tarixiy davrni o‘z ichiga olgan bo‘lib, Sh.Vohidov asar tarkibini quyidagicha tasniflagan edi: 1) Shohruhxon saltanatining ibtidosi (10–19-b); 2) Shohruhxon asridagi ulamo, mashoyix va avliyolar (19–20-b); 3) bayoni ahvoloti Abdurahimxon ibn Shohruhxon (21–26-b); 4) saltanati Abdulkarimxon (27–30-b); 5) Erdonaxon davri (30–31-b); 6) Norbo‘taxon davri (32–37-b); 7) Olimxon xonligi (37–75-b); 8) Amir Umarxon davri (75-b) va uning mo‘tabar hamasrlari; 9) Muhammadalixon davri (94-b); 10) Sheralixon saltanati (112-b); 11) Shohmurodxon zamoni (132-b); 12) Xudoyorxon davri (133-b) [7. B. 259–261].

Fozilbek Otabek o‘g‘li Shohruhxon zamonida Qo‘qonning “xarob suratda turgani” hamda Norbo‘taxon zamonida obod bo‘lib, poytaxt qilinganini aytib o‘tadi. Shuningdek, Norbo‘taxon ulamo va fuzalolarni yig‘ib, ularga bir katta shahar tartib bermoqchiligini aytib, unga yangi nom topishlarini buyuradi. Nomlar ichida “Mazharobod”, ya’ni “go‘zal, farovon, yashnagan joy” degani Norbo‘taxonga ma’qul keladi.

Qo‘qon xonlarining shajarasini Zahiriddin Muhammad Boburga bog‘lash tazkira va boshqa tarixnavislikka oid asarlarda an’ana tarzida kuzatiladi. Ularning shajarasi Amir Temurga bog‘lanishini dalillash uchun “Oltin beshik” haqidagi rivoyatni keltiradilar. Mazkur asarda ham bu voqea o‘ziga xos tarzda, rivoya shaklida, qiziqarli uslubda badiiy bayon qilingan. Bunda shajara silsilasi quyidagicha belgilangan: Oltin beshik – Sulton Elik – Sulton Xudoyor – Muhammad Aminxon – Shoh Abulqosim – Aslzodaxon – Siyamastbiy – Shohruhxonbiy – Rustambek – Hojibiy – Ashurbiy – Shohruhbiy. Oltin beshikdan to Shohruhbiygacha 165 yil vaqt o‘tgani aytiladi.

Fozilbek Otabek o‘g‘lining mazkur asarda tarixiy sanalarni keltirishi hamda manbalarni ko‘rsatib o‘tishi, qaysi ma’lumotga tayanib bayon qilayotganini izohlashi ahamiyatga ega. Masalan, Shohruhxonning xon bo‘lishi tarixini quyidagicha keltiradi: “Ravzat us-safo”ni mafhumig‘a qaraganda o‘shal asrni podshohi nogoh ov qilub yurib ko‘zi bul nohiyalarg‘a tushub, nazari Shohruhxong‘a tushib ko‘rdikim, nayza birla bir yo‘lbarsni o‘lduribdur, kelib nomu nasabidin so‘rab nosiyasidagi alomat shijoat va shukuhi davlatni fahm qilib mazkur nohiyag‘a bek qilib, iltifoti beg‘oyat xisravona birla sarafroz qilib, bul navohinlik hukmronlig‘ini mazkur Shohruhxong‘a tafavviz va ta’in aylab, xil’ati podshohonalar berib ketti va Shohruhxon Targ‘ova mavze’ida turib, Chamashda hukumat aylab, Xo‘qandni tarhu shahr asosin bunyod ayladi” [1. B. 121]. Demak, Shohruhxon Qo‘qonning shahar tarxiga asos soluvchi xon sifatida ko‘rsatiladi. Chodak xojalarini hiyla bilan qatl etib, u joylarni ham Shohruhxon o‘z tasarrufiga olgani bayon qilinadi. Bunday bosib olinishlarda mavze va viloyatlarning ziyon ko‘rganini muallif aytib o‘tadi: “...Chust va Namangonki emdi obod bo‘lib kelgan erdi, tamomi g‘orat qilib, o‘zlarig‘a tobe’ va minqod aylab, xon ovozasini baland ko‘si podshohlikni (ko‘si – ko‘sa so‘zidan. Ko‘si podshohlik – chala, soxta podsho ma’nosida. Hali hukmdor bo‘lmay turib o‘zini podsho qilib ko‘rsatish. – D.A.) qoqib nuzul qildilar” [1. B. 122].

Asardagi qimmatli ma’lumotlardan biri Shohruhxonning xonlik taxtiga o‘tirishi haqidagi tarixning

keltirilishidir: “Agar jo‘yi tu tarixi julusi ro‘zi Shohruh chu” tarix moddasi hijriy 1121-yil (milodiy 1710-yil)ga to‘g‘ri keladi. Shohruhxonning uch o‘g‘li Abdulrahim, Abdulkarim, Shodibeklar borligi aytiladi. Abdulrahim haqida ulamolar unga “qiron” deb laqab berganlari ma’lum bo‘ladi. Shu sababdan uning ko‘p shaharlarni bosib olgani, Shahrisabz hokimi Olimbekning qiziga uylangani, Samarqandni ham qo‘lga kiritgani haqida so‘z yuritadi. Abdulrahimni muallif “Amiri davrondesh va xoni maslahatkesh erdi”, ya’ni zamonning podshohi va dono maslahatchi edi, deb ta’rif beradi. Samarqandni olish tafsilini muallif quyidagicha beradi.

Abdulrahimxon Samarqand shahrini qamal qiladi. Shahar ahlida shahardan tashqari chiqishga hech qanday kuch va imkon yo‘q edi. Qamaldan charchagan va tang qolgan shahar ahli sulh so‘raydilar. Xon ularning iltimosini qabul qilib, sulhga rozi bo‘ladi. Shaharning ulamolari, fuzalolari, mashoyixlari va shaharning boshqa obro‘li kishilari chiqib, Abdulrahimxon bilan ko‘rishadi. So‘ngra xon Samarqandni o‘z hokimiga topshiradi. O‘zi esa yuqori martabali amaldorlari va davlat arkonlari bilan shaharga kiradi. Bir necha kun Samarqandda qolib, Rasul domod, elchi To‘ra va Olimbekni (Shahrisabz hokimi) chaqirtiradi. Olimbekning qizini xotinlikka so‘raydi. Olimbek rozi bo‘lib, qizini katta hashamat va zeb-ziynat bilan Abdulrahimxonga beradi. Bir necha kun Samarqand ahliga to‘y va tomoshalar beradi, o‘zi ham shaharda qoladi. Abdulrahimxon bir necha kundan keyin o‘z amaldorlari bilan Qo‘qonga qaytadi. Buxoro amiri Abdulrahimxonning Samarqandni olganini eshitib, lashkari bilan shaharga kirib, ko‘chalarga o‘t qo‘yib-yondirib, shaharni xarob qiladi va o‘z tasarrufiga olib, yangi hokim tayin qiladi. Abdulrahimxon ham Buxoro amiri Samarqandga kelganini eshitib, mabodo Buxoro amiri Qo‘qonga ham ko‘z tikib kelmasin, degan o‘yda ko‘pgina lashkar bilan Xo‘jandga kelib turadi. Lekin Buxoro amiri Samarqanddan boshqa tomonga chiqmay, qaytib ketadi. Abdulrahimxon bir necha kun Xo‘jandda turib, to‘satdan kasal bo‘lib, Xo‘jand shahrida vafot etadi. Uni Xo‘jandda dafn qilishadi. Hozirgacha Qo‘qon sarkardalari va xonlari orasida katta, uzun salomxona imorati “Rahimxon salomxonasi” deb ataladi.

Har bir Qo‘qon xonining hayoti, farzandlari, hukmronlik davri voqealaridan keyin ularning vafotlari moddai tarix asosida beriladi. Abdulrahimxonga “Dili jonash qarin mazhar shud” tarixi berilgan bo‘lib, hijriy sanada 1146-yilga, milodiy 1734-yilga to‘g‘ri keladi.

Abdulrahimxondan keyin Qo‘qon xonligini uning ukasi Abdulkarimxon boshqaradi. Uning vaqtida urushlar kam bo‘lgani aytib o‘tiladi. Shuningdek, bu davrda “Madrasai oliy” binosi qurilgani, Qo‘qonda shu vaqtgacha qal’a bo‘lmagani hamda shaharning to‘rt tomoniga quyidagi darvozalar: “Isfara”, “Qatag‘on”, “Marg‘inon”, “Toshkand” yoki “Haydarbek” darvozasi barpo etilgani aytiladi. Erdonaxon haqida ham ijobiy fikrlar bildiriladi. Uning zamonida Qo‘qon “ziyoda obod va ma’mur bo‘lgan”i, xon xalqparvar va shafqatli ekani ta’kidlanadi. Hatto u vafot etganda “fuqaro, umaro va mashoyixlar giribonlarin chok qilishub, faryodi fig‘on birlan Xo‘qandg‘a dafn” qiladilar.

Norbo‘taxon bin Abdulrahmonxon bin Abdulkarimxon bin Shohruxxon ijobiy fazilatlar bilan tavsiflanadi. Uning o‘ttiz olti yil hukmdorlik qilgani, xonlikda arzonchilik va to‘qchilik bo‘lgani, mamlakat obod va farovonligi, janglarsiz va fitna-fasodsiz hayot hukmron bo‘lganligi aytiladi. Hatto ukasi Hojibek bilan oralarini buzmoqchi bo‘lganlarida Norbo‘taxon bunday fitnaga berilmaydi: “Dedilarkim, aka-uka orasida podshohlikda mundog‘ ishlar bo‘ladur. Jigargo‘shamni ozori menga munosib emas, deb bovar qilmadilar. Chunki Norbo‘taxon salim dili beozor tab’ig‘a shafqat va muruvvatdin o‘zga hech nimarsa sig‘mas erdi” [1. B. 131]. Aka-uka Quvada uchrashganlarida esa bir-biri bilan quchoqlashib, yig‘lashib ko‘rishadilar. Ovqat vaqtida esa bir-birlariga qoshiq tutib, “avval siz oling” kabi mulozamat qilishadi.

Hozirgi kunda Qo‘qondagi “Madrasayi Mir” Norbo‘taxon madrasasi bo‘lib, uni xon Buxorodan ustalarni olib kelib qurdirgan ekan. Madrasa qurilib bitgach, bir yil o‘tib Norbo‘taxon vafot etadi.

Norbo‘taxon vafotidan keyingi hodisalarni muallif “g‘aroyib va ajoyib voqealar” deb nomlaydi. Sababi taxtga vorislik qilishi mumkin bo‘lganlar Norbo‘taxonning ukasi Hojibek hamda uch o‘g‘li Olimxon, Umarxon, Rustambeklar bo‘lib, turli jamoalar to‘rtala nomzodning xon bo‘lishini istar edi. Bu kurashlar oxirida Norbo‘taxonning katta o‘g‘li Olimxon g‘olib kelib, Qo‘qon taxtiga o‘tiradi. U dastlab ishni o‘ziga muxolifat kuchlarni yo‘qotishdan boshlaydi. Chunki uning o‘gay ukasi bo‘lgan Rustambekning tarafdorlari “Rustambek Norbo‘taxonni suyuklik o‘g‘li erdi” deb xon qilamiz” degan avvalgi niyatlari qulog‘iga yetgan Olimxon Pirmuhammad yasovul, Toshmuhammad mirzo, Xonxo‘ja, Buzrukxo‘ja, Hojibek (Norbo‘tabekning ukasi), Rustambekni bir kechada qatl ettiradi. Norbo‘taxonning yaqinlari, sarkarda va mulozimlar Rajab qushbegi va o‘g‘illari, Qurbonmuhammad mirzo, Mo‘minxon mirzo, G‘arib Davlat yasovul, Mullo Ashurmuhammad, Xudoyquli bahodir kabilar Buxoro tomonga qochib qutuladilar. Shundan keyin xalq Olimxonni “zolim” laqabi bilan ataydi.

Olimxonning qo‘shni viloyatlarni bosib olishga kuch bergani, yosh va kuchli yigitlarni chorlab, in’om va ehsonlar berib, qo‘shin tartib bergani, ularga “Gala bahodir” nomini qo‘yib, urushga chog‘lagani va qaysi

shahar, viloyatlarga borsa, g‘alaba bilan qaytgani bayoni asarda batafsil beriladi.

Olimxonning qo‘shinni urushga tayyorlashda o‘ziga xos uslubi borligini ko‘rish mumkin. U qo‘shinni ikki qismdan: o‘zbek va tojiklardan alohida qilib tuzgan. Olimxon ko‘proq tog‘liklar (tojiklar, g‘uljaliklar, badaxshoniylar, ko‘histoniylar)ga juda katta ishonch qo‘yadi va ularni o‘ziga yaqin tutadi. Kechalari ko‘pincha ular bilan birga o‘tirib, suhbatlashar edi. Tojiklar juda mardona va jonbozlik bilan jang qilganlarini ko‘rib o‘zbek askarlari uyalib, o‘zlari ham o‘tga tashlanib jang qila boshlagan ekanlar. Olimxon tog‘lik askarlarga juda ko‘p in’om-ehson berar, ularga yuqori martaba va unvonlar tayinlagan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, uning hukmronligi davrida tojik, shug‘noniy, badaxshoniy va ko‘histoniylardan iborat juda katta va sadoqatli qo‘shin tuzilgan edi.

O‘ratepaga qilgan yurishida Olimxon shaharni qamal qiladi. O‘zi tojikcha kiyinib, ular orasida turadi. Tojik askarlar xonni shunday holda ko‘rib, jon-dillari bilan qal’aga hujum qiladilar. Miltiq o‘qlari yomg‘irdek yog‘adi, lekin ular darvozani buzib, ichkariga kirib ketadilar. Keyin o‘zbek askarlari ham qal’aga kiradilar. Oxir-oqibat tojik askarlari shaharni talon-taroj qiladilar. O‘ratepa ahli tinchlik so‘raydi, lekin ko‘histoniylar shaharliklarning hamma narsasini tortib oladilar.

Jangda ishtirok etib yarador bo‘lganlarga Olimxon juda ko‘p in’om, ehson berib, ularni mukofotlaydi. Ma’lumotlarga ko‘ra, jangda o‘zbeklardan 444 kishi, tojiklardan esa hisobsiz askar shahid bo‘ladi. Buxoro amiri bu xabarni eshitib, Samarqandni yanada qattiqroq ehtiyot qilishni buyuradi. Olimxon esa O‘ratepa va Zominni o‘z tasarrufiga olib, u yerga tojik hokimlarini tayinlab, g‘alaba bilan Qo‘qonga qaytadi. Keyinchalik Jizzax qal’asini ham uzoq qamal qiladi. Tojik askarlari kechalari ham jang qilib, qal’ani olishga harakat qiladilar.

Xuddi shu qamal paytida ikkala muxolifat kuch tomondan xabar tarqatish bilan bog‘liq qiziq voqealar ro‘y berganligi asarda tasvirlanadi. Xususan, bir tojik josus qal’a ichiga qochib kirib, u yerdagilarga: “Olimxon qo‘shini och-yalang‘och, yaqinda qaytib ketadi” deb xabar beradi. Bu gap qal’a ahlining kayfiyatini ko‘tarib, ular qamalga chidamli bo‘lib qoladilar. Bir kuni qal’adan chiqqan odam Olimxonning joyini ko‘rsatib, to‘p o‘qlari yog‘dirishni taklif qildi, deb xabar keltiradi. Qo‘shin vahimaga tushib, xon ko‘chdi deb o‘ylab, birdaniga jonlanib ketadi. Olimxon vaziyatni tezda tushunib, hofiz va surnaychilarga buyuradi: “Eski joy atrofida avvalgidek aylanib yuringlar”. Qo‘shin bo‘lsa “Xon ko‘chmagan ekan” deb yana tinchlanadi. Oxir-oqibat sovuq havo va boshqa sabablar bilan qo‘shin qaytib keladi. Olimxon hammaga bir yil, yarim yil ta’til berib: “Bahorda Samarqand va Buxoroni olamiz” deb uylariga qo‘yib yuboradi. Keyin Olimxon qal’alarni mustahkamlab, yana yangi yurishlarga tayyorlanadi.

Olimxonning o‘zi ham dindor, suluk yo‘lini tutgan, har hafta zikr halqasiga kirib, raqsi samo qilardi. Bir kuni zikr paytida bir devona unga pichoq uradi. Xonning xodimi Quvvat Hofiz devonani ikkinchi bor hamlasi paytida tutib qoladi, Olimxon yaralanadi, lekin o‘lim xavfi bo‘lmaydi. Xon devonani kim yollaganini, nima sababdan bu ish qilingani haqida surishtirib o‘tirmaydi, faqat o‘sha pichoq urgan devonaning o‘zini o‘ldirishni buyuradi.

Olimxon davrida Qo‘qon xonligi juda kuchli edi. U tog‘lik tojik qo‘shinlariga tayanib, O‘ratepa, Jizzax kabi joylarni olishga muvaffaq bo‘ldi, lekin Buxoro bilan raqobat va ichki muammolar ham ko‘p edi.

“Mukammal tarixi Farg‘ona” asarida muallif Olimxon tarjimayi holi va hukmronligi tarixiga keng o‘rin ajratgan. Shunisi ham e’tiborliki, asar muallifi xonlarning xarakter xususiyati yoki faoliyatining faqat ijobiy jihatlarinigina emas, salbiy tomonlarini ham bayon qiladi. Dastlab “ajab shijoatlik dilovar podshoh erdi” [1. B. 40], degan bo‘lsa, xalq xonni “zolim” deb ataganini ham ro‘y-rost aytib o‘tadi: “Bul voqeadin keyin Olimxon “zolim” laqabi birla mulaqqab bo‘ldi. Hama fuqaro Olimxonni zolim der erdilar” deb yozadi.

Olimxon podshoh bo‘lgach, qo‘shinni kuchli qilish uchun har xil yo‘llar bilan g‘alla va pul yig‘ib, askarlarga maosh (ulufa) tayinlab turgan. Bu ishlarni qilganida bir xabar keladi: Toshkent hokimi Yunusxo‘ja Qo‘qonni egallash niyatida, ko‘p qozoq lashkari bilan Chodak yo‘li orqali Qo‘qon tomonga yo‘l olgan ekan va hozir Mahramsaroy tomonga yetib kelganmish. Bu xabarni eshitgan Olimxon darhol Rajab qushbegiga (tojiklar hokimi, Xo‘jand lashkari boshlig‘i) farmon beradi: “Daryodan o‘tib, kechalab ilg‘or qilib boring, ularning oldini oling va urush boshlang. Biz ham ortidan yetib kelamiz” [1. B. 138]. Rajab qushbegi zudlik bilan daryodan o‘tadi, askarlarni to‘playdi va kechasi Qamishqo‘rg‘onga yetib keladi. U yerda Olimxon peshin vaqtida Qo‘qon askarlari bilan Xurramsaroyga tushar ekan, deb eshitadi. Erta bilan sahar vaqtida Rajab qushbegi qo‘shin bilan daryo bo‘yidagi past joyga tushib, otlarga dam beradi. Keyin otlanib yurish qildi. Shu paytda daryoning narigi tomonida Olimxon lashkari tug‘ – bayroqlari bilan ko‘rinadi. Rajab qushbegi darhol qozoq lashkariga hujum qiladi. Lekin o‘zining bayrog‘ini (tug‘ini) himoya qilish uchun bir yigitning otiga kishan solib, atrofiga 50 nafar mergan qo‘yib, ularga: “Sizlar joyingizdan qimirlamang, tug‘ni saqlang!” deb topshiradi va o‘zi jangga kirishadi. Yunusxo‘jaga xabar keladi: “Oq yalovli (Olimxon) lashkari kelyapti, juda ehtiyot bo‘ling!” U darhol Masihquli jamoasiga tayyor bo‘lishni buyuradi. Qozoq-

lar karnay-surnay ovozini eshitib, qo‘rqib ketadilar. Narigi tomondan Olimxon lashkari mo‘r-malaxdek ko‘payib kelayotganini ko‘radilar. Qozoq beklari o‘zaro: “Yunusxo‘ja bizni aldabdi! U Olimxon zolimdan qutulamiz deb yolg‘on xat yozib, bizni baloga giriftor qildi!” deb, qochmoqchi bo‘ladilar. Lekin or-nomus tutib, saf tuzadilar va jangga tayyor turadilar. Rajab qushbegi tojik qo‘shini bilan qozoqlarga lochindek tashlanadi. Qo‘qon va Xo‘jand merganlari ham o‘q yog‘diradi. Qozoq qo‘shini chiday olmay, qochmoqqa yuz tutdi. Ular necha marta tug‘ tomonga hujum qilsalar ham, tug‘ joyidan qimirlamaydi – chunki uni himoya qiluvchi yigitning otiga kishan solingan edi. Oqibatda qozoqlar sarosimaga tushib, har tomonga parishon bo‘lib qochadilar. Chunki daryoning narigi tomonidan ham Olimxon qo‘shini o‘tib kelayotgan edi. Yunusxo‘ja ham xazina va mol-mulkini tashlab, Chodak yo‘li bilan qochib ketadi. Yo‘lda Qo‘qon lashkari ularning libos va qurol-yarog‘larini olib, o‘zi va bir necha yigitlarini asir qilishadi. Ularni Olimxon huzuriga yuboradilar. Rajab qushbegi o‘lja bo‘lgan mollarni ro‘yxat qilib, Olimxonga topshiradi. Olimxon barcha o‘lja, qurol-aslahalarni o‘z lashkariga taqsimlab beradi. Rajab qushbegiga ham katta iltifot ko‘rsatadi va barcha askarlarning ko‘nglini shod qiladi. Keyin maslahatlashib, to‘p va to‘pxonalarni tayyorlab, Qurama ustiga yurish qilishga qaror qiladilar. Lekin biroz yo‘l yurganidan keyin ulamolar va a’yonlar: “Hozir qish, havo juda sovuq. Bahorgacha kutsak, yana ko‘proq qurol-asbob tayyorlaymiz”, deb maslahat beradilar. Olimxonga bu fikr ma’qul keladi. Hamma qo‘shinni qaytarib, dam olishga (istirohatga) farmon beradi. Demak, bu jangda Olimxonning qo‘shini (Rajab qushbegi boshchiligida) Yunusxo‘janing qozoq lashkarini mag‘lub qilib, uni asir oladi. Keyin qish tufayli Qurama yurishini bahorga qoldiradilar.

Olimxonning Toshkentga yurishi va hujum qilishi tasviri ham uning qattiqqo‘l va shafqatsizligini ko‘rsatadi: “Go‘yo qiyomat-qoyim bo‘ldi. Shahar ichida g‘alla va don kam erdi. Qiymatchilikdin o‘tub qahatchilik ro‘y berdi. Hatto qassoblar so‘ygan qo‘ylarni qonini nechand odam talashib kosalarg‘a olib yosh bolalarig‘a yalatur erdilar va daraxtlarni bargini va giyohlarni tomurini kavlab yedilar. Ushbu holda zolim amir deb shuhrat topgan Olimxon daryoi Chirchiq labig‘a kelib turib to‘p otib qo‘ndilar va lashkarlar karnay va naqoralarini ovozini ahli shahar eshitib bisyor sarosima bo‘ldilar” [1. B. 142]. Toshkent hokimi Yunusxo‘ja bir necha mulozimlari bilan Buxoro tomonga qochib ketadi. Olimxonning Yunusxo‘jaga shafqat qilmoqchi bo‘lgani uning o‘z tilidan bayon qilinadi: “Yunusxo‘ja odamiyzoda, ya’ni kalonzoda erdi. Mani birla oshno bo‘lib peshravlik qilsa, gunohini afv aylab o‘z o‘rnig‘a hokim qilur edim. Emdi begona mamlakatg‘a qochib borib ovora va xor-zor bo‘lur” deb, Olimxon Toshkentga kirmay shahar tashqarisiga joylashadi. Olimxon Dashti Qipchoq, Rusiya o‘lkalarini egallash maqsadida qo‘shin to‘playdi. Biroq qish fasli bo‘lgani hamda amirning qattiqqo‘l va shafqatsizligi sababli qo‘shinda norozilik kuchayib ketgani bois bu reja amalga oshmay qoladi. Amirlashkar va sarkardalar Olimxonning ukasi Umarxonga arz yuborishib, uni akasining o‘rniga xon qilib ko‘tarmoqchi bo‘lishadi. Amir Olimxon qo‘shin va o‘z tarafdorlarini o‘g‘li Shohruhxonga qoldirib, hajga yo‘l olishini ma’lum qiladi. Biroq Olimxon dushmanlari tomonidan miltiq bilan otib o‘ldiriladi.

Amir Olimxonni xalq “zolim” deb atagan bo‘lsa, asarda amir Umarxon “jannatmakon” deb atalgan va quyidagicha tavsif etiladi: “Umarxonkim tab’i latif, fahmi zarif, fozil-u fuzalo do‘sti podshohi ulamoparvar erdi”. Amir Umarxonning Olimxon davrida bosib olingan yerlarni o‘z egalariga qaytarib bergani, xon zulmidan Buxoroga qochib ketgan beklarni Qo‘qonga chorlagani, Norbo‘tabek davridagi a’yonlarni yana o‘z joyiga qaytargani asarda izohlanadi. Shuningdek, amir Umarxonning unga qarshi bo‘lganlarni hamda amir Olimxon tarafdorlarini qatl ettirgani ham aytib o‘tiladi.

Amir Umarxonning Qo‘qondagi Jome masjidi poydevoriga ilk toshning qo‘yishi haqidagi voqeani muallif “hikoyat qilurlarkim...” deb boshlaydi. Unga ko‘ra, Amir Umarxon yig‘ilganlarga qarab: “Ushbu majlisda har kishi voyaga yetgan yoshidan to hozirgacha umrida qasddan sunnatni buzmagan bo‘lmasa, turib qo‘liga tosh olib birinchi bo‘lib qo‘ysin”, deydi. Hech kimdan sado chiqmaydi. “Umarxon hamd aytub, alhamdulillah banda ishim holi bulug‘dan tortib to alholg‘acha qasdi tarki sunnat qilg‘an emas erdim, deb qo‘lig‘a tosh olub turgan” ekan. So‘ngra Amir Umarxonning O‘ratepa, Xo‘jand, Samarqand, Jizzaxga qilgan yurishlari bayoni beriladi. Amir Umarxonning O‘ratepani egallashi davrida shoir Ado (Ahroriy) bilan munosabatlari ijobiy bo‘lgani aytib o‘tiladi. Amir Umarxon vafot etganda Qo‘qon ahli juda qattiq motam tutgani, chunki Umarxon davrida Xo‘qand gullab-yashnagani, ulamolar, shoirlar, donishmandlar dunyoning turli burchaklaridan kelib, Qo‘qon go‘yo jannatdek bo‘lganligi e’tirof etiladi. Asarda Amir Umarxonning yaqin suhbatdosh va xodimlarining nomlari keltiriladi: Zokirxo‘ja eshon shayxulislom, Mavlaviy Namangoniy, domla Mirzoyi qozikalon, domla Mo‘minjon marhum, hazrat domla Abdulkarim marhumiy, hazrat domlazoda marhum, hazrati Mavlaviy Kobiliy, hazrati domla Orif Pskatiy, valadi maxdumi Hummom.

Asarning “Ajoyib oriyat” sarlavhali qismida ming urug‘dan bo‘lgan Mullo Karimquli dasturxonchi voqe-

asi keltiriladi. Muallif bayon qilishiga ko‘ra, masalan, to‘yda bir oiladan bitta vakil kelib qatnashayotgan bo‘lsa, unga to‘n bilan bir tovoq osh va bir nechta non berib, uning to‘yga kelmay qolgan qarindosh-urug‘idan tortib to beshikdagi bolagacha – non va osh, to‘n qo‘yib berishardi. Agar to‘ydan keyin osh yo nonlari yetmay qolsa, el-ulus ro‘zg‘ordagi barcha narsalarni talab ketar ekanlar. Mullo Karimquli dasturxonchi ham shu “ming”lar jamoasidagi bid’at taomillarni qiluvchi odam bo‘lgan. U Xudoyorxon taxtga o‘tirganining 6-yili to‘y qilmoqchi bo‘lib, orzu qilib, yuz chorak un, yuz chorak guruch va to‘yga kerak bo‘ladigan barcha narsalarni tayyorlab, xalqni chaqirib shunday deydi: “Men besh yuz chorak un, yuz chorak guruch tayyorladim. Xohlaymanki, Xo‘qand aholisi va atrofdagi shaharlarni taklif qilib, ularga osh-non beray, kichik-kattaga sarupo taqdim qilay, xalqni xursand qilib, o‘zimning mahlisim (to‘yim) nomini dunyoga taratib, shuhrat qozonay” [1. B. 175]. Shunda unga yaxshi ko‘rganlari “yaxshi bo‘ladi” deb, to‘y boshlanishiga nechta ulamo va fozil odamlarni taklif qilib, ularga sovg‘alar va to‘n berib, ruxsat olib, yurtga osh-non tarqata boshlaydi. O‘z odatlaridagidek, bir oiladan nechta odam bo‘lsa – hatto beshikdagi bolachagacha – hammasiga mol-hisobini olib ketishadi. Hali xalqning uchdan bir qismi ham kelib ulgurmagan edi. To‘plangan un-guruch va to‘yga kerakli narsalar tamom bo‘lib qoladi. Mullo Karimquli dasturxonchi juda uyalib, o‘sha kechasi yarim tunda turib, Toshkentga qochib ketadi. Ertalab to‘y narsalari yetmay, to‘yni yaxshi o‘tkazolmadi, degan gap tarqab, “qochganim yaxshi bo‘ldi” deb o‘ylab yurgan edi. Kechasi qochgani ma’lum bo‘lgach, qarindosh-urug‘lari “Biz to‘yingni tamom qilaylik, yetmaganini biz beraylik” desalar ham qabul qilmaydi. Chunki o‘z odatlari bo‘yicha yetmaganda uning uyidagi qolgan-qutgan narsalarni talab ketishardi. Oqibatda olomon yugurib kelib, uning ro‘zg‘orini shu darajada talab ketadiki, hatto bo‘yrasi ham qolmagan ekan.

Bu haqda Fozilbek Otabek o‘g‘li “Bas, Mullo Karimquli dasturxonchining Toshkentga qochib ketishiga sabab aynan shu edi – bu voqea sahih (haqiqiy) edi” [1. B. 176.] deb qo‘shimcha qiladi. Bu Qo‘qon xonligi davridagi “ming”lar jamoasidagi bir qadimiy odat – to‘yga kelmaganlarga ham osh-non, to‘n berish va yetmasa uy-ro‘zg‘orni talab ketishning salbiy qirrasini ko‘rsatadi.

Asarda boshqa xonlar tarixi va ular haqidagi ma’lumotlar nisbatan qisqa berilgan. Bu to‘g‘rida Sh.Vohidov quyidagicha fikr bildiradi: “Muhammadalixon, Sheralixon, Xudoyorxon davrlariga oid ma’lumotlar ko‘pincha “Tarixi Shohruhiy” asosida yozilgan va Muhammad Fozilbek shu manba ta’sirida qolib ketgan” [7. B. 259.].

XULOSA

Fozilbek Otabek o‘g‘lining Qo‘qon xonlari tarixini yorituvchi “Mukammal tarixi Farg‘ona” asari shu mavzuda yaratilgan tazkira va tarixnavislik asarlaridan ayrim jihatlariga ko‘ra farq qiladi. Muallif Qo‘qon xonlari tarixini bayon qilar ekan, hukmdorlarning ham ijobiy, ham salbiy jihatlarini, xonlikdagi ijtimoiy holatlarni bayon qiladi. Unda XVII asrdan XIX asr II yarmigacha bo‘lgan o‘zbek xonliklaridagi ijtimoiy hayot tarixiy manbalar va faktlar asosida tasvirlangan. Asar Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda yangi tarixiy-adabiy manba sifatida ilmiy ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar:

1. *Фозилбек Отабек ўғли.* Сайланма. / Нашрга тайёрловчи: И.Мадғозиев. – Тошкент: Забаржад Медиа, 2025. – 240 б.

2. *Валидов А.З.* Восточные рукописи в Ферганской области. // Записки Восточного отделения Императорского русского археологического общества. Т. 22. – Петроград, 1915. – 320 с.

3. *Жалилов С.* Унутилаёзган олим // Фан ва турмуш. – 1979. – № 7. – Б. 80–84.

4. *Жалилов С.* Андижон. – Тошкент: Ўзбекистон, 1989. – 80 б.

5. *Аҳмедов С.* Ота-бола Отабековлар // Шарқ юлдузи. – 2015. – №2. – Б. 181–188.

6. *Аҳмад С.* Андижоннинг тараққийпарвар фидойиларини хотирлаб // Водийнома. – 2018. – №3. – Б. 52–58.

7. *Воҳидов Ш.* Қўқон хонлигида тарихнавислик. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 305 б.

8. *Шамсутдинов Р.Т.* Фозилбек Отабек ўғли ҳаётига чизгилар // Водийнома. – 2018. – №3. – Б. 59–61.

9. *Фозилбек Отабек ўғли.* Дукчи Эшон воқеаси. Фарғонада истибдод жаллодлари. / Нашрга тайёрловчилар: С.Аҳмад, У.Долимов, Ш.Ризаев. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 77 б.

10. *Каримов Б.* “Робинзон Крузо”нинг илк таржимаси // Жаҳон адабиёти. – 2010. – №5. – Б. 153–160.

11. *Дефо Д.* Робинзон ҳикояси. / Нашрга тайёрловчи: Б.Каримов. – Тошкент: Муҳаррир, 2013. – 40 б.
12. *Эгамназаров А.* Сиз билган Дукчи эшон. – Тошкент: Шарқ, 1994. – 144 б.
13. *Ҳожиматов Д.* Тарих қайта тиклаган сиймо. [Электрон манба]. URL: On 31.10.2018 By andijonsadosi.uz (Мурожаат этилган сана: 10.08.2022)
14. *Семенов А.А.* Описание персидских, арабских и турецких рукописей Фундаментальной библиотеки средниазиатского госуд. университета. – Ташкент: Издательство Среднеазиатского государственного университета (САГУ), 1935. – 91 с.
15. *Muhammad Fazılbek.* Mükammal Tarih-i Fergana. Çeviren: Abdullah Yahşi. – Türkiye, Çizgi kitap evi yainlari, 2021. – 128 s.
16. *Қосимов А., Абдулмажид Ҳ.Я., Мадғозиев И.А.* Андижон дарғалари ёхуд уламолар ва қорилар тазкираси. – Тошкент: Ҳилол нашр, 2025. – 432 б.

SOCIAL LIFE IN THE KOKAND KHANATE IS DESCRIBED IN THE WORK “MUKAMMAL TARIXI FARG‘ONA” BY FOZILBEK OTABEK OGLU

D.Z. Abdullayeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Ijtimoiy fanlar – Scientific Bulletin. Series: Social Research. 2025. 3(87). 21-28.
[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

The article is dedicated to the analysis of the social conditions in the Kokand Khanate as depicted in Fozilbek Otabek o‘g‘li’s work “Mukammal tarixi Farg‘ona”, the author’s approach as a historian, and the distinctive features of this work compared to other sources on the same topic. The significance of the work lies in its reflection of certain novel insights regarding the history of the Kokand khans from the “Oltin beshik” event up to the second half of the 19th century, including their genealogy and the intense events surrounding throne successions.

Fozilbek Otabek qozi o‘g‘li (1879–1938) is known to have been a poet, prose writer, historian, pedagogue, translator, calligrapher, jurist, journalist, painter, photographer, musician (instrumentalist), and selectionist scientist. His work “Mukammal tarixi Farg‘ona” (“The Complete History of Fergana”) was first published in 2025[1]; the distinctive and original manner in which it presents the history of the Kokand Khanate makes it particularly noteworthy and worthy of special attention.

Materials and Methods: The work “Mukammal tarixi Farg‘ona” was composed around 1910 at the request of A.I. Gippius, the military governor of the Fergana region [14]. The original manuscript is preserved in the Main Library of National University and Institute of Oriental Studies of Uzbekistan. The first edition of the work in its original language was prepared and published by I. Madghoziev based on this copy [1]. In 2021, the work was translated into Turkish and published by Dr. Abdullah Yahshi, in Turkey [15].

The article employs historical-genetic, historical-typological, and historical-systemic methods.

Results: In the introduction to “Mukammal tarixi Farg‘ona”, the author states that his primary objective is to chronicle the history of the region. He emphasizes his intention to provide a concise yet complete and precise account of the construction and development of Kokand—the capital of the Fergana province—as well as the lives, biographies, histories, and events of the successive khans from that period onward, including changes in times, revolutions, the khans’ deaths, events during their lifetimes, periods of rule, victories, and the mutual conflicts, wars, and disputes among them. This material was drawn from eyewitness accounts by knowledgeable and wise individuals of their times, as well as from books and manuscripts they recorded, in order to establish and accurately describe the true state of the Kokand khans with supporting evidence.

Conclusion: “Mukammal tarixi Farg‘ona” is a work that illuminates the history of the Kokand khans and differs in certain respects from other

works on this topic. While narrating the history of the Kokand rulers, the author addresses both the positive and negative aspects of the sovereigns, as well as numerous issues within the khanate. As a new historical-literary source, the work possesses significant scholarly value.

References:

1. Fozilbek Otabek o‘g‘li. (2025). *Saylanma.* [Selected Works]. Prepared for publication by I.Madghoziev. – Tashkent: Zabarjad Media.

2. Validov, A.Z. (1915). *Vostochnye rukopisi v Ferganskoj oblasti* [Eastern Manuscripts in the Fergana Region]. Zapiski Vostochnogo otdeleniya Imperatorskogo russkogo arheologicheskogo obshchestva. Vol. 22. Petrograd.

3. Jalilov, S. (1979). Unutilayozgan olim [Forgotten Scholar]. *Fan va turmush*. No 7. Pp. 80-84.

4. Jalilov, S. (1989). *Andijan* [Andijan]. Tashkent: O‘zbekiston.

5. Ahmedov, S. (2015) *Ota-bola Otabekovlar* [Father and Son Otabekovs]. *Sharq yulduzi*. No. 2. Pp. 181-188.

6. Ahmad, S. (2018). Andijonning taraqqiyparvar fidoyilarini xotirlab. [Remembering the Progressive Devotees of Andijan]. *Vodiynoma*. No 3. Pp. 52-58.

7. Vohidov, Sh. (2010). *Qo‘qon xonligida tarixnavislik.* [Historiography in the Kokand Khanate]. Tashkent: Akademnashr.

8. Shamsutdinov, R.T. (2018). Fozilbek Otabek o‘g‘li hayotiga chizgilar [Sketches from the Life of Fozilbek Otabek o‘g‘li]. *Vodiynoma*. No 3. Pp. 59-61.

9. Fozilbek Otabek o‘g‘li (1992). *Dukchi Eshon voqeasi.* [The Dukchi Eshon Incident]. The Butchers of Despotism in Fergana. Prepared for publication by S.Ahmad, U.Dolimov, Sh.Rizaev. Tashkent: Cho‘lpon.

10. Karimov, B. (2010) “*Robinzon Kruzo”ning ilk tarjimasi* [The First Translation of Robinson Crusoe]. *Jahon adabiyoti*. No 5. Pp. 153-160.

11. Defoe, D. (2013) *Robinzon hikoyasi.* [The Story of Robinson]. Prepared for publication by B.Karimov. Tashkent: Muharrir.

12. Egamnazarov, A. (1994) *Siz bilgan Dukchi eshon.* [The Dukchi Eshon You Know]. Tashkent: Sharq.

13. Hojimatov, D. (2018) *Tarix qayta tiklagan siymo* [A Figure Restored by History]. [Online]. URL: On 31.10.2018 By andijonsadosi.uz (Date of Access: 10.08.2022)

14. Semenov, A.A. (1935) *Opisanie persidskih, arabskih i tureckih rukopisej Fundamentalnoj biblioteki sredniaziatskogo universiteta* [Description of Persian, Arabic, and Turkish Manuscripts in the Fundamental Library of the Central Asian State University]. Tashkent: Izdatel’stvo Sredneaziatskogo gosudarstvennogo universiteta (SAGU).

15. Muhammad Fazılbek. (2021) *Mükammal Tarih-i Fergana* [The Complete History of Fergana]. Translator: Abdullah Yahshi. Turkey. Çizgi kitap evi yainlari.

16. Qosimov, A., Abdulmajid, H.Y., Madgoziyev, I.A. (2025) *Andijon darg‘alari yoxud ulamolar va qorilar tazkirasi.* [The Dargahs of Andijan or the Tazkira of Scholars and Qur’an Reciters]. Tashkent: Hilolnashr.

Muallif haqida ma’lumot:

ABDULLAYEVA Dildoraxon Zumratbekovna – filologiya fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori. E-mail: dildora.abd@mail.ru